


2021-yil uchun Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 47 331,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020-yil bilan taqqoslaganda 8,0 %ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020-yildagi narxlarga nisbatan 116,7 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 %ga yetdi.




2020-2021-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da
	2020-yil	2021-yil	
I. YAHM, jami	37 560,2	47 331,9	108,0
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	36 265,5	45 654,1	107,9
mahsulotlarga sof soliqlar	1 294,7	1 677,8	108,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	36 265,5	45 654,1	107,9
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12 626,2	16 052,6	103,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	9 990,7	12 784,8	110,2
sanoat	7 591,8	9 725,0	108,5
qurilish	2 398,9	3 059,8	115,8
xizmatlar	13 648,6	16 816,7	110,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 947,9	3 597,3	109,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 105,3	2 812,5	123,8
boshqa xizmat tarmoqlari	8 595,4	10 406,9	107,2

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 12 267,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,9 %ga yuqoridir.

2020-2021-yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,5 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,5 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 35,2 %ni, sanoat tarmog'i 21,3 %ni, qurilish 6,7 %ni va xizmatlar sohasi 36,8 %ni tashkil qildi.

2020-2021-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)

	2020-yil	2021-yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,6	96,5
mahsulotlarga sof soliqlar	3,4	3,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	34,8	35,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	27,5	28,0
sanoat	20,9	21,3
qurilish	6,6	6,7
xizmatlar	37,7	36,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,1	7,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,8	6,2
boshqa xizmat tarmoqlari	23,8	22,7

2020-2021-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 35,2 %), sanoatda –108,5 % (21,3 %), qurilishda –115,8 % (6,7 %), xizmatlar sohasida – 110,2 %ni (36,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,4% (7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 123,8 % (6,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,2 % dan (22,8%) iborat bo'ldi.

2020-2021-yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan %da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2020-yilda – 1,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,7 f.p. (2020-yilda – 0,8 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,0 f.p. (2020-yilda – 0,9 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 0,7 f.p. (2020-yilda – 0,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2020-yilda – 0,6 f.p.)ga pasaydi.

2021-yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan %da)



2021-yilda YAHM deflyatori indeksi 2020-yildagi narxlarga nisbatan 116,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 122,6 % va sanoatda – 118,1 % qayd etildi.

2020-2021-yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan %da)



2021-yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2021-yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 69,9 %ni tashkil qildi (2020-yilda – 70,5 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

